

## TOL DARAXTIDAN QALAMCHA TAYYORLAB UNI KO'PAYTIRISH USULI

**Zafarov Og'abek**

Sam DVMCHBU talabasi

**Djumaboyev Saydullo**

Sam DVMCHBU dotsenti

***Annotatsiya:** Tol novdalari nozik va ingichka. Manzarali daraxt sifatida o'stiriladi. Novdalaridan har xil savatlar to'qiladi. Ko'kalamzorlashti-rish, obodonlik, ihota o'rmonzorlari tashkil etish, yog'och va xoda olish uchun ekiladi. Tolni qalamchasidan ko'chat qilib ko'kartirish usuli bo'yicha tadqiqotlar olib borilib shu asosda xulosa va takliflar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Tol, novda, Ihota, xoda, po'sti, qalamcha, qurilish materi-allari, uy jihozlari, glikozid, sellyuloza, lignin, oshlovchi moddalar salitsin, uglevodlar, asalarilar, gulshira va gulchangi.*

**Tol** (*Salix*) toldoshlarga mansub daraxtlar va buta, chala butalar miga kirib, 300 yaqin turi ma'lum. Asosan, mutadil mintaqada, Yevropa va Shimoliy Amerikada tarqalgan. O'rta Osiyoda 22 turi bor. Daraxtlarining xodasi yug'on, po'sti dag'al, barglari navbat bilan joylashgan. Ba'zilar bargi yozilguncha, boshqalari bargi yozilgandan keyin yoki bargi yozilishi bilan bir vaqtda gullaydi. Ikki yoshli novdalari kuchala chiqaradi. Gullari ikki uyli, bir jinsli, mart— aprel oylarida gullaydi. Mevasi ko'sakcha. 25—30 kunda yetiladi. Urug'i mayda, ochiq va nam yerda tez, ya'ni 5—10 soatda unib chiqadi. 15—20 kundan keyin unish qobiliyatini yo'qotadi.

Qalamchasidan, poya (xoda)sidan, parhishdan yaxshi ko‘payadi. O‘zbekiston-da Oq tol, Qora tol, Ignabarg tol, majnuntol, Suvtol, Turon toli kabi turlari tarqalgan. Issiqqa chidamli, sho‘rxok yerlarda ham yaxshi o‘sadi. Qalamchasi va poyasi ekib o‘stiriladi. Obodonlashtirish va xo‘jalik ehtiyojlari uchun ko‘p ekiladi.

Novdalari nozik va ingichka. Manzarali daraxt sifatida o‘stiriladi. Novdalaridan har xil savatlar to‘qiladi.

Ko‘kalamzorlashtirish, obodonlik, ihota o‘rmonzorlari tashkil etish, yog‘och va xoda olish uchun ekiladi. Qadimdan Tol yog‘ochidan qurilish materiallari, toq ishkomb, so‘ri, har xil buyumlar, beshik, bolalar o‘yinchoqlari, ketmon va belkurak dastalari yasashda foydalaniladi.

Tol-*Salix L.* hayotiy shakllariga ko‘ra yirik daraxt va butalar bo‘lib, balandligi 20-35 m poyasining eni 1 m gacha, ba‘zi turlari butalar hisoblanadi. Shoxlanishi simpodial tipda bo‘lib, yirik shox-shabballarni hosil qiladi. Ikki uyli. Po‘stlog‘i kulrang, yo‘l-yo‘l yorilgan. Qari novdalari silliq, yosh novdalari esa tuklar bilan qoplangan. Barglari oddiy, ketma-ket joylashgan, yon bargchali, bandli. Bargi butun, lansesimon, ustki qismi yashil tovlanadi, argning ostki qismi esa kumushsimon oqish tovlanadi. Gullari kichik, gulqurg‘onsiz, ayrim jinsli to‘pgulda to‘planadi.

Tol turlari amaliy ahamiyatiga ko‘ra xilma-xildir. Bu o‘simliklar qadimdan tog‘ daryo o‘zanlari, to‘qayzorlarda keng tarqalgan bo‘lib, aholi tomonidan manzarali o‘simlik sifatida ko‘p ekilgan va suv havzalari atrofida ekilishi bilan meliorativ vazifalarni bajargan. Tol o‘simligi ekologik jihatdan suv saqlash, daryo o‘zanlari mustahkamligini saqlashda roli katta o‘simlik hisoblanadi. Uning yosh novdalari chorva mollari va yovvoyi o‘txo‘r hayvonlar uchun ozuqadir. Sanoatda esa tol po‘stlog‘idan terini oshlash uchun, novdalaridan savat, mebellar tayyorlash uchun foydalaniladi. Mahalliy sharoitda hunarmandlar undan beshik, ba‘zi uy jihoz va anjomlari tayyorlashadi. Tol tez o‘sadi va yaxshi soya beradi, uning yig‘loqi shakllari, masalan, majnuntollar dam olish maskanlarida, hovuz, ariq yoqalarida go‘zal landshaftlar hosil qiladi.

*Salix*L.turlari erta bahorda asalarilar uchun gulshira va gulchangi beradi. Bunda bir o‘simlikda 23-31 g. shakar yig‘ilishi aniqlangan L.Bulgakova o‘z kuzatishlarida tolning *Salix L.* turlari gulshira va gulchangi berishi haqida qisqacha ma’lumot bergan. Kraxotin 1991 tol turlari gulchangi beradigan tur sifatida qaraydi. Shu sababdan uning tabiatda va manzarali o‘simlik sifatida tarqalishi, asalarichi-likda o‘z ahamiyatiga ega. Bundan tashqari tol turlarining gullash davri asalarida ozuqa tanqisligi bo‘lgan erta bahor davriga to‘g‘ri keladi

*Salix* turlari bahorning erta yoki kech kelishiga qarab turli vaqtlarda gullaydi. Bu esa asalarilar oilasining rivojlanishi davrida ma’lum darajada ozuqa bilan ta’minlaydi. Bu o‘simlik tuproq-iqlim muhitiga talabchan emas va ko‘paytirish oson. Shuningdek, manzarali va ihota sifatida, xo‘jalik maqsadida ekiladi. *Salix karpea L.* turi keng maydonlarda ekilganda uning asal mahsuldorligi 150 kg/ga tashkil etgan. Uzoq Sharqda 70 dan ortiq *Salix* turlari yovvoyi holda keng tarqalgan bo‘lib, noqulay sharoitda ham gulshira ajratishi, bularning turlarining birin-ketin gullashi natijasida gullash davri 30-35 kun davom etishi, yalpi maydonlardan 100-120 kg/ga asal olinishi qayd etilgan. Qulay ob-havo sharoitida kontrol uyalar 2 kg.gacha asal to‘plashi aniqlangan. Tol turlarining keng tarqalganligi bois birinchi darajali gulchangi va gulshira beruvchi o‘simlik hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida tuqayzor, tog‘ daryo o‘zanlarida tarqalgan turlarning vaqti biroz cho‘zilib 25-30 kun davom etadi. Bu esa erta bahorda arilar uchun ozuqa tanqis bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Changchilari, urug‘chilari ham ikki mevachi barglardan hosil bo‘lgan. Gulchangi yopishqoq va hasharotlar yig‘ib olish uchun qulay bo‘lgan gulchangi beradigan o‘simlikdir.

Tajribamiz Samarqand VMCHBU tajriba uchastkasida qo‘yildi. Tajriba tariqasida qora tolning qalamchalari olindi. Qalamchalar tol kesish vaqtida: mart oyida tayyorlanadi. Qalamchalarning uzunligi odatda 50-60 sm,

Tol ko‘chatlari tuproqning mexanik tarkibi, sizot suvining chuqurligiga qarab 8-12 marta sug‘oriladi. Qalamchalar ko‘karib, bir metrqa yetgunga qadar qator orasiga 3-4 marotaba ishlov berilib, o‘g‘it solinadi. Dastlabki 2 oylik davrida har 10-15 kunda sug‘orilib turilishi kerak. Birinchi yili tuproqni o‘z vaqtida yumshatish katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, qator oralari kultivator bilan 4 martagacha yumshatiladi va kamida 2 marta o‘simlik oraliqlari chopib chiqiladi. O‘shish davri oxirlarida o‘simlikning turi va naviga qarab, asosiy tanasi uzunligi 200—300, yo‘g‘onligi 3—4 sm. ga yetadi. Shu bilan bir qatorda, asosiy tana bo‘ylab yon novdalar ham o‘sa boshlaydi.

Sug‘orishlar oralig‘i iyun va iyul oylarida 15 kundan oshmasligi kerak. Vegetatsiya davrida sug‘orish me‘yori 800 m<sup>3</sup>/ga bo‘lib chuqur va keng ariqlar orqali sug‘oriladi. Sug‘orish tuproqni yumshatish bilan birga olib borilsa yanada samarali bo‘ladi. Qator orasidagi tuproqni yumshatish, yer yetilgan holda, odatda sug‘orishdan keyin ikkinchi yoki to‘rtinchi kuni o‘tkaziladi. Birinchi yili ko‘chat qator orasini 4 marta yumshatish yetarli. Shox-shabbalari tutasha boshlashi bilan tuproqni yumshatish soni qisqartiriladi.

Oziqasi sug‘orishdan oldin o‘simliklarning qatorlari bo‘ylab, ariqlar tubiga 4-6 sm chuqurlikka solinadi.

Vegetatsion tajribamiz idishlarda olib borilib, tuproq harorati, strukturasi, havo va suv o‘tkazuvchanligi ham o‘ziga xos bo‘lib, tolning ildiz tizimining rivojlanishida ham ancha qo‘lay sharoit shakllanganligi tajribamizdan ma‘lum bo‘ldi. Shag‘al va tuproqni bir-biridan ajratish uchun idish diametridan 5-8 sm kattaroq qog‘oz qirqimlari ishlatildi. Tuproq to‘ldirishdan oldin bir xil og‘irlikka keltirildi. Tayyorlangan tuproqlarni idishlarga joylab, 2,0-2,5m/m bo‘lgan shisha trubkalar qo‘yiladi. So‘ngra solingan tuproq zichlanib, qalamchalar ekiladi.

Tajribadan shunday xulosa qilish mumkinki, Idishlarda ekilgan tol ko‘chati dala sharoitida ekilgan tol ko‘chatiga nisbatan, o‘shishi, rivojlanishi va ildiz sistemasining ancha qo‘lay sharoit shakllanganligi tajribamizdan ma‘lum bo‘ldi.

**Adabiyotlar**

1. „Tol“ [O‘zME. T-harfi](#) Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Дробов В.П.. *Растительные ресурсы Гиссарского хребта (бассейна реки Тупаланг)*. Ташкент: Изд.АНУЗР, 1951 — 72 bet.
3. Булгакова Л.Л.; Суворин Ф.. *Медоносы кочевого пчеловодства*. Ташкент: Госиздат УзР, 1961 — 28-31 bet.